

TARJIMA, UNING TURLARI VA O‘ZARO FARQLARI

Nasirilloeva Husniya Muzaffar qizi

Termiz davlat universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti, 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tarjima jarayonining insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni, tarixi va mamlakatlar orasidagi aloqa uchun tarjimaning qay darajada muhimligi, tarjimaning turlari ularning farqlari va shakllari yoritilgan. Tarjimaning asosiy turlari og‘zaki, ketma-ket, sinxron va yozma shakllari izohlangan.

Kalit so‘zlar: *Tarjima, og‘zaki tarjima, ketma-ket tarjima, sinxron tarjima, yozma tarjima, Buyuk Ipak yo‘li, madaniyatlararo muloqot, tarjimon, adabiyot, tarix.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль перевода в развитии человечества, его история и значимость для установления связей между странами. Освещаются виды перевода, их различия и формы. Подробно объясняются основные виды перевода: устный, последовательный, синхронный и письменный.

Ключевые слова: *перевод, устный перевод, последовательный перевод, синхронный перевод, письменный перевод, Великий шелковый путь, межкультурная коммуникация, переводчик, литература, история.*

ABSTRACT

This article discusses the role of translation in the development of humanity, its history, and the importance of translation for communication between countries. It highlights the types of translation, their differences, and forms. The main types of translation—oral, consecutive, simultaneous, and written—are explained.

Keywords: *translation, oral translation, consecutive translation, simultaneous translation, written translation, Great Silk Road, intercultural communication, translator, literature, history.*

KIRISH

Tarjima har doim xalqlar do‘stligi, totuvligi va har ikki mamlakatning tinchligi uchun ko‘prik vazifasini o‘tab kelgan. Ayniqsa hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda mukammal tarjimaga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Tarjima nafaqat yozma yoki og‘zaki, balki madaniyatlararo vositachi ham bo‘lib kelgan. Shu sababli tarjimaning turlari, qanday shakllari, xususiyatlarga ega ekanligini, qanday chuqur ma‘nolar aks etishini yetarli darajada o‘rganish muhim sanalmoqda. Tarjima bir tildagi matnni boshqa bir tilga o‘g‘irish jarayonidir. Va bu turli xil tarjima

shakllarini o'z ichiga oladi. Qadimda qabilalar orasida tarjimaga muhtojlik sezilgan vaziyatlarda imo-ishoralar bilan muloqot qilishgan bo'lsa, ular o'rtasidagi ehtiyoj kuchayganligi sababli tarjima yuzaga kelgan. Aslida tarjima millat va xalqlar bilan muloqot qilishning eng muhim va samarali ko'rinishidir. Shu bilan birgalikda tarjima rivojlanishi uchun "Buyuk Ipak yo'li" juda katta o'rin tutgan. Qadimda Sharq va G'arbni bog'lab turgan eng katta savdo-sotiq yo'li tufayli savdogarlar tarjimaga muhtojlik sezishgan va shu tufayli ham tarjima keng miqyosda tarqalgan. Aynan shu yo'l orqali ko'plab kitoblar, qo'lyozmalar, diniy matnlar, ilmiy asarlar kirib kelgan. Masalan Hindistondan buddaviylik kitoblari, Eron va Arab dunyosidan diniy va falsafiy asarlar, Xitoydan esa tarixiy va ilmiy bilimlar keltirilgan. Vaholangki, ularni tarjima qilish uchun malakali tarjimonlar kerak bo'lgan va tarjima faoliyati yanada rivojlangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

O'zbek adabiyotida ham tarjimachilik uzoq vaqtlar oldin rivojlangan. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mahmud Qoshg'ariy, Rabg'uziy, Qutb va boshqalar ham bunda katta o'rin tutishadi. Tarjima nusxa ko'chirish emas, balki uning tafakkuri va tasavvurini ishlatgan holda uning darajasini belgilab beradigan qismidir. Har bir xalq adabiyotining rivojlanishida tarjimachilikning ta'siri katta bo'ladi. Zero tarjima tarixi adabiyot tarixi bilan tengdoshdir. Tarjimaning qanchalik keng tarqalgani va taraqqiyoti o'sha xalqning ma'rifiy boyligiga bog'liq. Tarjimaning asosiy turlari to'rtta:

- 1) Og'zaki;
- 2) Ketma-ket;
- 3) Sinxron;
- 4) Yozma [1].

Ixtisoslashuviga ko'ra texnik, yuridik, badiiy va imo-ishora tili tarjimonlariga bo'linadi.

Og'zaki tarjima bu tarjimon o'z ona tilidan boshqa bir tilga og'zaki shaklda o'girish jarayonidir. Og'zaki tarjima suhbat yoki nutqni jonli tarzda tarjima qilishdir. Manba tili va tarjima tillarining qanday shaklda o'zgarishiga qarab bir necha turlarga bo'linishi mumkin va ularning o'rniga qarab keyingi bosqichida o'zgarishi mumkin:

- Og'zakidan og'zakiga - og'zaki eshitilgan axborotning og'zaki tarjimasi;
- Yozmadan og'zakiga - yozma matnning yozma tarjimasi;
- Yozmadan og'zakiga - yozma matnning yozma tarjimasi;
- Og'zakidan yozma - og'zaki eshitilgan matnning yozma tarjimasi.

Og'zaki tarjimada tarjimondan real vaqtda eshitgan matn mazmunini tez tushunib, tahlil qilish, o'sha vaqtning o'zida tarjima qilish ko'nikmasi talab qilinadi.

Yoki o‘zi uchun kichik daftar eslatmalaridan foydalanadi. Tarjima jarayonida xatoni to‘g‘irlash yoki toxtab qolish mumkin emas. Shuning uchun bu turdagi tarjima uchun tarjimondan aniqlik va tezkorlik talab qilinadi [2].

Ketma-ket tarjima qilish bu bir tilda og‘zaki axborot berilgandan so‘ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon umumiy fikrlari yoki eng kamida asosiy abzasni tinglaydi va tinglash chog‘ida yozib olingan eslatmalar (note-taking) yordamida nutqni tarjima qiladi. Ketma- ket tarjima qilish vaqtiga ko‘ra 2 bosqichga ajratiladi.

Birinchi bosqich, so‘zlovchining nutqini o‘z ichiga oladi va bu bosqichda tarjimon qisqacha nutqni yozib olishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda tarjimon aytilgan xabarni yozib olganlaridan foydalangan holda tarjima qiladi.

Inson xotirasi barcha ma’lumotni eslab qolish qobiliyatiga ega emas. Shuning uchun tarjimon butun matnni tushunish imkonini beruvchi va gapning asosini yodda saqlab qolishga yordamlashuvchi semantik asosni topib, uni tarjima qilishi zarur. Ketma-ket tarjima qilishning 3 ta asosiy prinsipi mavjud: anglash, tahlil qilish va qayta ifoda qilish. Anglash prinsipida so‘zlar emas, balki fikrlar tarjima qilinishi kerak. Agar tarjimon so‘zlovchining nutqidan biron so‘zning tarjimasini bilmay qolsa, umumiy fikrdan anglab yetishi kerak [3].

Sinxron tarjimada tarjimon tarjima qilish kabinasida o‘tiradi va quloq eshitgich orqali tarjima qiladi. Konferensiya xonasidagi delegatlar asosiy tilni quloqchin orqali tinglashadi. Sinxron tarjima imo-ishoralar orqali ham bajariladi (kar va soqovlar uchun). So‘zlangan tildan imo-ishora tiliga tarjima qilinadi.

Sinxron tarjima birinchi jahon urushi davrida vujudga kelgan. Ilk sinxron tarjima tajribasi 1928-yilda VI Komintern Kongressida bo‘lib o‘tgan. O‘sha davrda telefonlar bo‘lmagan va shu sababli so‘zlovchining nutqi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimonning quloqlariga yetib borar edi. Ilk kabina va quloqchinlar 1933-yil Kominternning ijro etuvchi 13-yalpi majlisida paydo bo‘lgan [4].

Yozma tarjima deganda bu bir tildan har qanday yozma matn yoki og‘zaki materialning yozma shakldagi tarjimasini tushuniladi. Ya’ni, matn, kitob, maqola, hujjat va hokazolar tarjimon tomonidan o‘qib, tushunib, mazmuni boshqa tilga yozma tarjima qilinadi. Tarjimondan talab qillinadigan narsa matnni mukammal darajada o‘qib chiqish va mazmunini to‘g‘ri tarjima qilishdir. Yozma tarjimada og‘zaki tarjimaga qaraganda ancha ko‘p vaqt beriladi va bu vaqt davomida mukammal tarjima uchun kitob va lug‘atlar bilan ishlashi mumkin.

XULOSA

Tarjima insoniyat tarixida xalqlar o'rtasida do'stlik va hamrohlikni mustahkamlashda muhim vosita bo'lib kelgan. Tarjima orqali nafaqat til, balki madaniyatlar, ilm-fan almashinuvi ham bo'ladi va tarjimon uchun faqat til bilishdan tashqari boshqa ma'lumotlarga ham ega bo'lish talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012.
2. Komissarov V.N Umumiy tarjimashunoslik asoslari. – Moskva. 1990.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
4. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.